



The role of proverbs and sayings in developing students' intercultural communication skills

Gulchekhra KHAZRATOVA¹

Tashkent Medical Academy

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

10 January 2024

Accepted 25 January 2024

Available online

25 February 2025

Keywords:

morality and traditional views,
linguocultural analysis of proverbs and sayings, stereotypes,
national-cultural semantics, linguistic and cultural studies.

ABSTRACT

This article explores the deep connection between proverbs and sayings, products of oral folk art, and the culture of the people they originate from. Proverbs and sayings encapsulate the wisdom and experience of ancestors' worldviews, offering valuable insights into the values, customs, culture, and character of a particular society. By studying these linguistic units, one can gain a better understanding of the cultural heritage and distinctive traits of a given people.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss2/S-pp13-16>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Maqol va matallarni talabalarning madaniyatlararo muloqot mahoratini ta'minlashdagi o'rni

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

axloq va an'anaviy qarashlar, maqol va matallarning lingvomadaniy tahlili, stereotiplar, milliy-madaniy semantika, lisoniy-madaniyatshunoslik.

Ushbu maqola xalq og'zaki ijodi mahsuli maqol va matallarning o'sha xalqning madaniyatiga qanchalar bog'liqligi haqida so'z yuritadi. Maqol va matallar o'tmishda o'tgan ajdodlar dunyoqarashining donoligi va tajribasini o'zida mujassam etgan birlik bo'lib ular o'sha xalqning qadriyat va udumlarini, madaniyati va xarakterini yanada yaxshiroq tushunish imkoniyatini beradi.

¹ Senior Lecturer, Department of Uzbek and Foreign Languages, Tashkent Medical Academy.
E-mail: gulchekhrakhazratova@gmail.com

Роль пословиц и поговорок в обеспечении навыков межкультурного общения студентов

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

мораль и традиционные
взгляды,
лингвокультурологический
анализ пословиц и
поговорок,
стереотипы,
национально-культурная
семантика,
лингвокультурология.

Данная статья посвящена тесной связи пословиц и поговорок, являющихся продуктом устного народного творчества, с культурой народа. Пословицы и поговорки представляют собой единство, воплощающее мудрость и опыт мировоззрения предков, и позволяют глубже понять ценности, обычаи, культуру и характер данного народа.

Ma'lumki, biror bir xalqning donishmandligi va ruhiyati o'sha xalq maqol va matallarida namoyon bo'ladi, u yoki bu xalqning maqol va matallarini bilish esa nafaqat o'sha xalq tilini bilish, balki o'sha xalq tafakkuri va xarakterini yanada yaxshiroq tushunish imkoniyatini beradi. Maqol biror bir xalq tarixiy tajribasining mahsulidir. Maqol va matallar tillarda qadimdan mavjud. Maqollarning aniq qofiyasi, sodda shakli va qisqaligi nutqning barqaror, oson esda qoluvchi va zaruriy qismiga aylanishiga sabab bo'ldi. Maqol va matallarning paydo bo'lishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ayrimlari, hattoki hali yozuv paydo bo'lishidan oldin dunyoga kelgan. Shu boisdan, maqol va matallarning dastlabki manbasi sifatida xalqning jamoaviy fikrlashidir deb ta'kidlash o'rinli.

AQShdagi maqollarni o'rganish bo'yicha eng mashhur olim Wolfgang Mayder hisoblanadi, va u mazkur sohaga oid ellikdan ortiq kitoblarning muallifi sanaladi. Mayder maqollarni quyidagicha ta'riflaydi: "Maqol – bu bir avloddan ikkinchi avlodga o'tadigan va biror xalqning donoligi, haqiqati, axloq va an'anaviy qarashlarini metaforik, qat'iy va esda qolarli tarzda aytilgan qisqa, barchaga ma'lum bo'lgan xalq og'zaki ijodi mahsulidir". [1]

A.N. Afanasev maqolni quyidagicha ta'riflaydi: "Maqollar shakliga ko'ra o'zgarishga uchramaganligi bois qadimdan shakllangan qarashlar haqida ma'lumot beruvchi yodgorlikdir. Maqollar ajdodlar donoligining asosiy manbai, xotirasini o'zida mujassam etuvchi, insoniyat tajribasini tarqatish vositasidir" [2]

Bilamizki, maqollar ko'pchilik lisoniy jamoalar uchun umumiy, xarakterlovchi dunyoqarash stereotiplarini o'zida aks ettiradi, bundan tashqari ular konkret etnik jamiyatgagina xos bo'lgan mental belgilarni ham ifodalaydi. Xalq og'zaki ijodining qolgan barcha janrlari singari maqol va matallarda asrlar mobaynida u yoki bu xalq duch kelayotgan va turmush tarzi bilan bog'liq barcha narsa va hodisalar o'z aksini topadi. Bunga mehnat qurollaridan tortib to geografik atrof-muhitning har tomonlama tavsifi, o'tib ketgan voqea-hodisalar haqidagi xotiralar, taniqli tarixiy shaxslar, diniy qarashlarning aks-sadosi kabi turli qadriyat va udumlarni kiritish mumkin.

Tilshunoslikning til va madaniyatni o'zaro munosabatini o'rganuvchi tarmog'i bo'lgan lingvokulturologiyaning asosini tilning kumulyativ funksiyasini o'rganish tashkil qilib, til nolisoniy jamoat tajribasini o'zida to'plovchi va uni boshqalarga yetkazib beruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi, hamda u maqol va matallarda yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Rus tilshunoslari Ye.M. Vereshagin va V.G. Kostomarov tomonidan taklif etilgan ma'noning madaniy komponenti tushunchasini qamrab oluvchi lisoniy-

madaniyatshunoslik nazariyasi maqol va matallarning lingvomadaniy jihatdan o'rganish imkoniyatini berdi. Maqol va matallarning lingvomadaniy tahlili mamlakat tarixi, uning madaniyati, turmush tarzi singari tashqi omillarga chambarchas bog'liq bo'ladi. Maqol va matallarning lingvomadaniy jihatdan tahlili milliy-madaniy semantikaga ega bo'lgan maqollarning qo'shimcha ma'noviy belgilarini aniqlash imkonini beradi.

Hammaga ayonki, dunyoda yuzlab, hattoki minglab millat va elat vakillari mavjud. Har bir millat yoki etnik guruh o'ziga xos urf-odatlar, an'ana, udumlarga ega bo'lib, bir vaqtning o'zida, ular biror bir millat madaniyatini tashkil qiladi. Dunyodagi turli millatlar haqida so'z borganda, ularni ayrim o'ziga xos jihati bilan boshqa madaniyat vakillaridan ajralib turishi tilga olinadi. Masalan, ruslarning tavakkalchiligi, nemislarning o'ta punktualligi barchaga ma'lum. O'zbeklar bolajonligi va mehmondo'stligi bilan ajralib turadi. Xususan, o'zbek xalqi uchun xos bo'lgan or-nomus, sharm-hayo, uyat, andisha singari yuksak axloqiy tushunchalar o'zbek xalqi madaniyatida o'z aksini topgan. Maqol va matallar millat madaniyati ko'zgusi sifatida ham ta'riflanadi. Turli maqollar to'plamida uchraydigan o'zbek xalq maqollari to'g'risida so'z borar ekan, o'zbek xalq maqollari jamoaviylik, saxiylik, mehmondo'stlik, mehr-oqibatlilik singari o'zbek madaniyatiga xos bo'lgan xususiyatlarni ifodalashiga guvoh bo'lamiz (masalan, Hashar elga yarashar; Saxiy xor bo'lmas, baxil behishtga kirmas; Mehmon otangdek ulug'; Mehmon kelar eshikdan riski kelar teshikdan; Bol shirin, boldan bola shirin; Bola aziz boladan tarbiyasi aziz). [3]

Ingliz madaniyatida maqol va matallarning aks etishi to'g'risida so'z borar ekan, boshqa ko'plab kontseptlar bilan bir qatorda inglizlar uchun o'z uylari alohida ahamiyat kasb etishi ta'kidlash lozim. "An Englishman's home is his castle; East or west, home is best; There is no place like home; Every bird likes its own nest best" kabi maqollardan ko'rinib turibdiki, inson yashaydigan joyi, o'zining uyi ingliz madaniyati vakillari uchun muhim sanaladi.

Maqol va matallarni talabalarining madaniyatlararo muloqot mahoratini ta'minlashda o'rni lozim darajada muhimdir. Bu jarayon quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Madaniy tafovutlarni tushunish: Maqol va matallar, bir xalqning tarixiy tajribalari, qadriyatlari va an'analari haqida ma'lumot beradi. Talabalar ularni o'rganish orqali boshqa madaniyatlarni better tushunish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

2. Muloqot qobiliyatini rivojlantirish: Madaniyatlararo muloqot ko'plab o'ziga xos tillarda va ifodalarda amalga oshiriladi. Maqol va matallarni o'rganish orqali talabalar, bu ifodalarning qanday ishlatilishini va ularning muloqotdagi ahamiyatini anglaydilar.

3. Yaratijilik va tanqidiy fikrlash: Turlik maqol va matallar, talabalar uchun yaratijilikni rag'batlantirish va nazariy fikrlarini dalil bilan asoslash imkonini taqdim etadi. Bu jarayon, ularni kognitiv rivojlanishga yordam beradi.

4. Empatiya va o'zaro hurmat: Turli madaniyatlar haqidagi maqol va matallarni o'rganish, talabalar o'zaro hurmat va empatiya sharoitini mustahkamlashga yordam beradi. Bu esa madaniyatlararo muloqotni yanada yengillashtiradi.

5. Milliy va global identifikatsiya: Talabalar maqol va matallar orqali o'z madaniyatlarining o'ziga xosligini anglashga yordam beradi, shuningdek, global madaniyatlar kontekstida o'z o'rnini bilib oladi.

Demak, maqol va matallar biror bir xalq madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi, o'zining ixcham strukturasi, oson esda qolishi, purma'noliligi bilan boshqa til birliklaridan ajralib turuvchi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan til birligi

ekanligini ta'kidlash joiz. Bundan tashqari, xorijiy tildagi maqol va matallardan yaxshi xabardor bo'lish madaniyatlararo muloqot jarayonida kommunikantlar orasida tezroq va osonroq til topishish imkoniyatini beradi. Umuman olganda, maqol va matallarni o'rganish talabalar uchun madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda muhim vosita bo'lib beradi, bu esa ularga kengroq nuqtai nazar, ijodkorlik va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mieder W., Wise Words. Essays on the Proverb, New York: Garland Publishing Inc., 2015, p.102
2. Afanas'ev A.N. Proisxozhdenie mifa. – M.: Viss'haya shkola, 1996. 15 s.
3. Maxsudova N.A., Xalq maqollarida o'zbek milliy qiyofasi//Molodoy ucheney, 2020, № 19 (309), 572-576 s
4. Gulchekhra Sh. Khazratova, Formation of Intercultural Competence in the Process of English Language Teaching, American Journal of Education and Evaluation Studies, Vol.1, No.7 (Oct, 2024).